



### DAVLAT MOLiyAVIY NAZORATI SAMARADORLIGI TAHLILI

**Temirov Muxammadali Xamidovich**  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti PhD

**Annotatsiya.** Ushbu maqola zamonaviy sharoitlarda davlat moliyaviy nazorati mexanizmlarining samaradorligini baholash muammosini o'rganilgan. Nazorat mexanizmlari samaradorligini o'lchashning turli yondashuvlari tahlil qilingan, shuningdek, moliyaviy nazorat sohasida optimal natijalarga erishishga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan. Xulosa qismida, davlat moliyaviy nazorati samaradorligini doimiy monitoring qilish va tahlil qilish muhimligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy nazorat, davlat moliyaviy nazorati, nazorat organlari, samaradorlik, samaradorlik mezonlari.

### АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ

**Темиров Мухаммадали Хамидович**  
PhD, Международный университет Кимё в г. Ташкенте

**Аннотация.** В данной статье рассматривается проблема оценки эффективности механизмов государственного финансового контроля в современных условиях. Проанализированы различные подходы к измерению эффективности механизмов контроля, а также выявлены факторы, влияющие на достижение оптимальных результатов в сфере финансового контроля. В заключении обосновывается важность постоянного мониторинга и анализа эффективности государственного финансового контроля.

**Ключевые слова:** финансовый контроль, государственный финансовый контроль, контрольно органы, эффективность, критерии эффективности.

### ANALYSIS OF THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL CONTROL

**Temirov Mukhammadali Khamidovich**  
PhD., Associate professor,  
Kimyo international university in Tashkent

**Abstract.** This article deals with the problem of assessing the effectiveness of state financial control mechanisms in modern conditions. Various approaches to measuring the effectiveness of control mechanisms are analyzed, as well as factors influencing the achievement of optimal results in the field of financial control are identified. In conclusion, the importance of constant monitoring and analysis of the effectiveness of state financial control is substantiated.

**Key words:** financial control, state financial control, control bodies, efficiency, efficiency criteria.

#### **Kirish.**

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, aholi turmush darajasini oshirish davlat oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Bu muammoni hal etish esa davlat moliyasi boshqaruvi sifatiga bevosita bog'liq. Shu munosabat bilan uning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar mavjud bo'lib, bu o'z navbatida davlat moliyaviy nazorati samaradorligini oshirish, shuningdek, nazoratni zamon talablariga moslashtirish dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda.

Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va amalga oshirish davlat boshqaruvining ustuvor vazifasi hisoblanadi. O'z o'rnida davlat moliyaviy nazorati samaradorligini tahlil qilish zamonaviy jamiyatda dolzarb va muhim masala sanaladi. Samarali davlat moliyaviy nazorati davlat moliyasining shaffofligi, hisobdorligi va samarali boshqaruvini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu mavzuning dolzarbligini aks ettiradigan bir nechta muhim jihatlar mavjud bo'lib, ularning eng asosiylari quyidagilardir:

- korrupsiyaga qarshi kurash: davlat moliyaviy nazorati korrupsiya, moliyaviy resurslardan noto'g'ri foydalanish va byudjet mablag'laridan samarasiz foydalanish holatlarini aniqlash va oldini olishga yordam beradi;

- byudjet mablag'larining samarali sarflanishi: nazorat samaradorligini tahlil qilish byudjet mablag'lari samarasiz yoki hatto behuda sarflanayotgan sohalarni aniqlash imkonini beradi. Bu byudjet xarajatlarini optimallashtirish va davlat dasturlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;

- shaffoflik va ishonch: samarali moliyaviy nazorat davlat moliyasini boshqarishda shaffoflikni oshirishga yordam beradi. Bu fuqarolar, biznes va xalqaro hamkorlarning ishonchi uchun sharoit yaratadi;

- moliyaviy barqarorlik: moliyaviy operatsiyalarni tizimli tahlil qilish byudjetni rejalashtirish va ijro etishdagi xavf va nomuvofiqliklarni aniqlash imkonini beradi. Bu davlatning moliyaviy barqarorligini saqlashga yordam beradi;

- xalqaro standartlar: tobora ko'proq mamlakatlar xalqaro moliyaviy hisob va hisobot standartlariga rioya qilishga intilmoqda. Davlat moliyaviy nazorati samaradorligini tahlil qilish davlatlarga moliyaviy faoliyatining xalqaro standartlarga muvofiqligini nazorat qilishda yordam beradi;

- texnologik taraqqiyot: texnologiyaning rivojlanishi bilan ma'lumotlarni tahlil qilishning yangi vositalari va usullari paydo bo'lmoqda, ular moliyaviy nazorat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va aniqroq natijalar beradi;

- iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar: iqtisodiy sharoitlar o'zgarishi va bu byudjet ustuvorliklari va xarajatlariga ta'sir qilishi mumkin. Nazorat samaradorligini tahlil qilish davlat moliyasi boshqaruvini yangi voqelikka moslashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, davlat moliyaviy nazorati samaradorligini tahlil qilish davlatlarga moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, barqarorlik va shaffoflikni saqlash, fuqarolar va xalqaro hamkorlar ishonchini oshirishga yordam beradi.

### Adabiyotlar sharhi.

Bogoslavskiyning (2015) fikricha davlat moliyasi tizimi faoliyati samaradorligining asosiy elementlaridan biri bu davlat moliyaviy nazorati bo'lib, u qonunchilik va huquqiy- normativ hujjatlarga, davlat mablag'laridan foydalanish normalari, standartlari va qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish bo'yicha harakatlar va operatsiyalar majmuasidir. Bundan kelib chiqadiki, davlat moliyaviy nazoratining asosiy maqsadi g'aznaga mablag'lar oqimini maksimal darajada oshirish va ulardan maqsadsiz foydalanishning oldini olishdir (Kovaleva va boshqalar, 2017).

Shuni qayd etish lozimki, tadqiqot davomida iqtisodchi olimlar o'rtasida davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati samaradorligi mezonlarining soni va ularni baholash metodologiyasi bo'yicha yakdil fikr yo'qligi aniqlandi.

Ignatovning (1999) so'zlariga ko'ra nazorat organlari faoliyatining samaradorligi nazorat obyektlari faoliyati natijalariga asoslanishi kerak. Bu jihatdagi baholash mezonlari nazorat obyektlari faoliyatining yakuniy natijalari, ularning dinamikasi; nazorat qilish obyektlari uchun mavjud resurslar miqdori va ulardan foydalanish darajasi; nazorat qilinadigan ob'ektlarda mavjud resurslardan foydalanishni yaxshilash orqali yakuniy natijalarning o'sishi hisoblanadi.

Salixovning (2005) takidlashicha, kelgusida samaralilikning asosiy mezoni tekshirilayotgan obyektlarida moliyaviy qonun buzilishlari emas, balki o'g'irlik, o'zlashtirish va suiste'mol qilish holatlarini aniqlash maqsadida nazorat tadbirlarini o'tkazish bo'yicha ishlab chiqilgan va tasdiqlangan audit standartlarini amalga oshirish bo'ladi.

Litvinenko va Shevtsov (2015) davlat moliyaviy nazorati samaradorligini baholash uchun quyidagi mezonlarni taklif qiladilar: natijaviylik, samaradorlik, tejamkorlik, intensivlik, dinamiklik. Dinamiklik mezoni ko'rsatkichlari nazorat organi faoliyatining rivojlanishini, o'zgarishini aks ettirishi kerak va intensivlik mezoni ko'rsatkichlari ishning intensivligini tavsiflashi kerak, xususan: ko'rilgan choralar soni, aniqlangan qoidabuzarliklar hajmi, nazorat bilan qamrab olingan ob'ektlar soni. Biz

Sharinning (2012) “dinamiklik mezonini ko‘rsatkichlari asosan natijaviylik va samaradorlik mezonlari ko‘rsatkichlarining nisbatini aks ettiradi va ularning koeffitsienti hisoblanadi” degan fikriga qo‘shilamiz.

Boshqa bir guruh olimlar ham davlat moliyaviy nazorati samaradorligini baholashning shunga o‘xshash mezonlarini taklif qiladilar: natijaviylik, tejamkorlik va mahsuldorlik. Samaradorlikni baholash, ularning fikricha, “birinchi navbatda, faoliyat yoki dastur samaradorligini baholashni, ya’ni olingan natijalar kutilgan natijalarga qanchalik mos kelishini baholashni nazarda tutadi” (Ivanova va boshqalar, 2009).

Yana bir guruh olimlar, jumladan, Shoxin va Voronina (1997), Burtsev (2000) va Yakupovlar (2013) davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini davlatga qaytarilgan mablag‘lar miqdoridan nazorat qilish xarajatlarini chiqarib tashlagan holda, shuningdek, davlat moliyaviy va boshqa moddiy va nomoddiy resurslarni boshqarishda ortiqcha xarajatlarning oldini olish orqali baholanishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, davlat moliyaviy nazorati samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishi, uni amalga oshirish xarajatlarini kamaytirishdir.

Umuman olganda, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatining samaradorligi belgilangan maqsadlarga erishishni mutlaq va nisbiy qiymatlarda baholash asosida belgilanishi kerak. Biroq, taklif etilayotgan ko‘rsatkichlar, odatda nazorat organi samaradorligini aniqlangan qonunbuzarliklar hajmiga va taqdim etilgan arizalar soniga bog‘liqligini aks ettiradi. Natijada, nazorat organlari tekshirilayotgan tashkilotlar tomonidan mablag‘larni maqsadsiz sarflash, noqonuniy o‘zlashtirish va boshqa huquqbuzarliklarning ko‘payishidan manfaatdor bo‘ladigan vaziyat vujudga keladi. Shu boisdan, davlat moliyaviy nazorati samaradorligining asosiy ko‘rsatkichi byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi bo‘lishi kerak (Zaxarov, 2010).

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, guruhlash, taqqoslash usullaridan foydalangan holda ilmiy natijalar ishlab chiqilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida davlat moliyaviy nazorati organlarining asosiy funksiyalari, qoida tariqasida, davlat organlariga byudjet mablag‘larini ajratish bo‘yicha buyurtmalarga ruxsat berish, davlat xarajatlarining qonuniyligini hamda budjet xarajatlarining sarflanishi to‘g‘risidagi hisobotlarning tayyorlanishini nazorat qilishdan iborat bo‘lgan (Mirzoyev, 2022). Bunda nazorat organlarining asosiy maqsadi davlat moliyasini samarali va mas‘uliyat bilan boshqarishni ta‘minlash, byudjet mablag‘larining maqsadsiz sarflanishiga yo‘l qo‘ymaslik, xarajatlarni davlatning ustuvor yo‘nalishlari va qonun hujjatlariga muvofiqligini ta‘minlashdan iborat edi. Vaqt o‘tishi va davlat moliyasini boshqarish tizimining rivojlanishi bilan bu funksiyalar zamonaviy iqtisodiyot va jamiyat ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchun o‘zgartirilishi va to‘ldirilishiga ehtiyoj sezila boshlandi.

Xususan, jamiyat davlat organlari, jumladan, byudjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlar faoliyatining ochiqqligiga, shaffofligiga va hisobdorligiga yuqori talablar qo‘ymoqda, bu esa o‘z navbatida ularga, fuqarolarga davlat mablag‘larining sarflanishi bo‘yicha to‘liq ma‘lumot bilan ta‘minlash majburiyatini yuklaydi (Mirzoyev, 2022).

Shuningdek, taraqqiyotning hozirgi bosqichida mamlakat oldida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va aholining turmush darajasini oshirish vazifasi turibdi. Bu muammoni hal etish bevosita davlat moliyasini boshqarish sifatiga bog‘liq. Uning samaradorligini oshirishga yuqori e‘tibor qaratilayotgan sharoitda maqsadli dasturlarni amalga oshirish uchun byudjet xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazorati samaradorligini oshirish, nazoratni zamonaviy talablariga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda davlat moliyaviy nazoratining samaradorligi bir qator mezon va ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi, ularning holatiga turli xil tashqi va ichki omillar ta’sir qiladi. Har qanday harakatning samaradorligi uning natijaviyligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu, o‘z navbatida, davlat mablag‘laridan foydalanish jarayonida rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar darajasiga erishishdan dalolat beradi.

Shu bilan birga, “barcha bosqichlarda nazorat samaradorligini baholashning yuqoridagi ko‘rsatkichlari va mezonlari muayyan ko‘rsatkichlar va mezonlarning ustuvorligi bilan bog‘liq muammolarga duch kelishi mumkin, ya’ni, ularni taqqoslashda ularning ahamiyatligining o‘ziga xos raqobati” (Vasilyeva, 2015).

Openyshev va Jukov (2001) “nazorat samaradorligi mezonlarini aniqlash ... adekvat uslubiy yondashuvlardan foydalanganda mumkin”, deb hisoblaydilar. Mualliflar davlat moliyaviy nazorati

samaradorligini baholash modeliga quyidagi ko'rsatkichlar guruhlarini kiritadilar: ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy. Ular tomonidan taklif etilgan davlat moliyaviy nazorati samaradorligi tuzilmasi ikki qismdan - makro samaradorlik (kompleks samaradorlik) va oraliq samaradorlikdan iborat. Makro samaradorlik - moliyaviy nazoratni amalga oshirish natijasida olingan samaralar yig'indisi, jumladan, ijtimoiy samara, tashkiliy samara va iqtisodiy samara. Davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatining oraliq samaradorligi taqdimnomalar va ko'rsatmalarni bajarilishining iqtisodiy natijalarini davlat moliyaviy nazorati organlarini saqlash xarajatlariga nisbati bilan belgilanadi.

Mualliflar davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatining makroiqtisodiy samaradorligini miqdoriy bahosini ijtimoiy, tashkiliy va iqtisodiy samaralarning pul ko'rinishidagi yig'indisini ushbu organlarni saqlash xarajatlariga nisbati sifatida aniqlashni taklif qiladilar. Muayyan davlat moliyaviy nazorati organi faoliyatining oraliq samaradorligini miqdoriy bahosini byudjet hisobvaraqlariga qaytarilgan mablag'larning davlat moliyaviy nazorati organlarini saqlash xarajatlariga nisbati sifatida hisoblash taklif etiladi.

Ular moliyaviy nazorat organlari faoliyatining kompleks samaradorligini quyidagi formula bo'yicha aniqlashni taklif qiladilar:

$$E_k = (E_s - E_t + E_i)/X \quad (1)$$

bu yerda,

$E_k$  - kompleks samaradorlik

$E_s$  - ijtimoiy samaraning pul qiymati

$E_t$  - tashkiliy samaraning pul qiymati

$E_i$  - iqtisodiy samaraning pul qiymati

$X$  - moliyaviy nazorat organini saqlash xarajatlari

Moliyaviy nazorat organlari faoliyatining oraliq samaradorligini esa quyidagicha hisoblash taklif qilinadi:


$$E_o = E_b/X \quad (2)$$

bu yerda,

$E_o$  - moliyaviy nazorat organlari faoliyatining oraliq samaradorligi

$E_b$  - byudjetga qaytarilgan mablag'lar

Davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati samaradorligining quyidagi mezonlarini ajratib ko'rsatish mumkin (1-rasm).



### 1-rasm. Davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati samaradorligi mezonlari

Ushbu mezonlarni alohida ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularning har biri o'z ichiga quyidagi jihatlarni oladi, jumladan:

- Natijaviylik mezonlari:
  - qonun hujjatlarini buzgan holda foydalanilgan mablag'larning aniqlangan miqdori;
  - samarasiz foydalanilgan mablag'lar miqdori;
  - boshqa maqsadlar uchun foydalanilgan mablag'lar miqdori;
  - tayyorlangan taqdimnomalar va ko'rsatmalar soni.
- Amaliylik mezonlari:
  - bajarilgan taqdimnomalar soni;
  - byudjetga va tashkilotlarning byudjet hisobvaraqlariga qaytarilgan mablag'lar miqdori;
  - hisob palatasining takliflari bo'yicha iqtisodiyotda, vazirlik va idoralarda amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlar soni;
  - hisob palatasining taqdimnomalari asosida budjetning daromad qismini ko'paytirish yoki uning xarajatlar qismini tejash;
  - amaldagi qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar soni;
  - hisob palatasining takliflari bo'yicha ijro etuvchi hokimiyat organlarining qabul qilingan qarorlari soni;
  - hisob palatasining taqdimnomalari bo'yicha ochilgan jinoyat ishlari soni.
- Tejamkorlik mezonlari:
  - moliyaviy nazoratni amalga oshirish uchun sarflangan mablag'lar miqdori;
  - tekshirilayotgan nazorat subyekti tomonidan inspektorlar uchun materiallar tayyorlashga sarflangan mablag'lar miqdori;
  - samaradorlik darajasi - hisob palatasining taqdimnomalarini amalga oshirishdan olingan iqtisodiy samaraning uni saqlash xarajatlariga nisbati;
- Faoliyat dinamikasi mezonlari:
  - nazorat tadbirlarining samaradorlik darajasi: taqdim etilgan taqdimnomalar va ko'rsatmalar sonining nazorat choralari soniga nisbati;
  - nazorat chorasining samaradorlik darajasi: amaldagi qonun hujjatlarini buzgan holda foydalanilgan mablag'lar miqdorining tekshirilgan mablag'larning umumiy miqdoriga nisbati;
  - nazoratning qat'iylik darajasi: jarimalar miqdorining maqsadsiz foydalanilgan mablag'lar miqdoriga nisbati;
  - taqdimnomalar va ko'rsatmalarning ta'sirchanlik darajasi: to'ldirilgan taqdimnomalar va ko'rsatmalar sonining taqdim etilgan taqdimnomalar va ko'rsatmalarning umumiy soniga nisbati;
  - taqdimnomalar va ko'rsatmalarning samaradorlik darajasi: byudjetga qaytarilgan mablag'lar miqdorining maqsadsiz foydalanilgan mablag'larning umumiy miqdoriga nisbati;
  - qabul qilingan o'zgartirishlar, qarorlar, normativ hujjatlar sonining qonunlar, qarorlar, normativ hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi kiritilgan takliflar soniga nisbati;
  - nazorat faoliyatining makro-samaradorlik darajasi: byudjetiga qo'shimcha tushumlarning Hisob palatasini saqlash xarajatlariga nisbati.
- Intensivlik mezonlari:
  - nazorat tadbirlari soni;
  - tekshirilgan mablag'lar hajmi;
  - tekshirilgan ob'ektlar soni.

Keltirilgan mezonlar ishni bajarish muddatlariga, me'yoriy hujjatlarga rioya qilish, aniqlangan qonunbuzarliklarni aks ettirishning to'liqligi, nazorat o'tkazish va hisobot berish jarayonida xolislik nuqtai nazaridan davlat moliyaviy nazorati faoliyati sifatini tavsiflaydi. Ushbu mezon va ko'rsatkichlar moliyaviy nazorat samaradorligini ikki bosqichda har tomonlama baholash imkonini beradi.

Birinchidan, xar bir indikatorga erishish darajasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_{efi} = I_{fakt} / I_{norm} \quad (3)$$

bu yerda,

$I_{fakt}$  – haqiqiy ko'rsatkich, i-mezon bo'yicha amalda erishilgan ko'rsatkichlar;

$I_{norm}$  – me'yoriy ko'rsatkich, i-mezon bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlarining umumiy

soni.

Ikkinchidan, indikatorlarga erishishning integral darajasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_{efis} = K_{ef1} + K_{ef2} + \dots + K_{efn/n} \quad (4)$$

bu yerda,

$K_{ef1}$ ,  $K_{ef2}$ ,  $K_{efn}$  – aniq indikatrolarga erishish darajasi,  $n$ -indikatorlar soni.

O'tkazilgan hisob-kitoblar asosida davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatining ham individual mezonlar bo'yicha, ham umumiy samaradorligi to'g'risida xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

**Davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati samaradorligini baholash metodikasi**

| Samaradorlik koeffitsientining qiymati               | Ko'rsatkich samaradorligini baholash |
|--|--------------------------------------|
| <b>Aniq indikatorga erishish darajasi</b>            |                                      |
| $K_{efi} = 1$  | Yuqori samarali                      |
| $1 > K_{efi} \geq 0,8$                               | Samarali                             |
| $0,8 > K_{efi} \geq 0,6$                             | Ehtimol samarasiz                    |
| $0,6 > K_{efi}$                                      | Samarasiz                            |
| <b>Indikatorlarga erishishning integral darajasi</b> |                                      |
| $K_{efis} = 1$                                       | Yuqori samarali                      |
| $1 > K_{efis} \geq 0,8$                              | Samarali                             |
| $0,8 > K_{efis} \geq 0,6$                            | Ehtimol samarasiz                    |
| $0,6 > K_{efis}$                                     | Samarasiz                            |

Taqdim etilgan moliyaviy nazorat samaradorligini tahlil qilish metodikasi (1-jadval) universal bo'lib, boshqaruv jarayonining barcha darajalarida davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini baholash imkonini beradi.

Lomakinning (2008) so'zlariga ko'ra, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatining samaradorligini baholash quyidagi formula orqali amalga oshirilishi mumkin:

$$S_{fis} = (S_t + S_a + S_e) / X_{mn} \quad (5)$$

bu yerda,

$S_{fis}$  – faoliyat iqtisodiy samaradorligi

$S_t$  – nazorat tadbirlari iqtisodiy samaradorligi (byudjetga qaytarilgan mablag'lar)

$S_{e-a}$  – ekspert-analitik faoliyatdan olingan iqtisodiy samara (byudjetga qaytarilgan mablag'lar)

$X_{mn}$  – moliyaviy nazorat organini saqlash xarajatlari.

Ammo, davlat moliyaviy nazorati organi samaradorligini baholashda ba'zi cheklovlarni hisobga olish kerak. "Jumladan, aniqlangan huquqbuzarliklar hajmi nazorat samaradorligi oshishi bilan kamayishi mumkin, nazorat ishlarining tannarxini pasaytirish esa uning sifatining zarur darajasi bilan cheklanadi. Ideal holda, moliyaviy nazorat qonunbuzarliklarning kamayishiga olib kelishi kerak. Faoliyat samaradorligini baholashda yuqoridagi mezon va ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, yakuniy natijalar qanday olinganligini ko'rsatuvchi mehnatning ekstensivlik va intensivlik omillarini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir" (Lomakin, 2008).

Ekstensivlik mezoni quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi: o'tkazilgan nazorat tadbirlari soni; tekshirilgan mablag'lar miqdori; tekshirilgan ob'ektlar soni. Bu nazorat bilan qamrab olinadigan xarajatlar hajmining ( $H_q$ ) xarajatlar bo'yicha byudjet hamjiga ( $H_{bx}$ ) nisbati sifatida aniqlanadigan nazorat qamrovi koeffitsienti ( $K_q$ ) bilan aniqlanishi mumkin.

$$K_q = H_q / H_{bx} \quad (6)$$

Shuningdek, u nazorat bilan qamrab olingan byudjet mablag'laridan foydalanuvchilar ( $B_{fn}$ ) sonining byudjetdan foydalanuvchilarning umumiy soniga ( $B_{fu}$ ) nisbati bilan ham aniqlanishi mumkin:

$$K_q = B_{fn} / B_{fu} \quad (7)$$

"Intensivlik mezoni inspektorlar soni bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Masalan, bitta inspektor tomonidan tekshirilgan ob'ektlar soni yoki bitta inspektor tomonidan

tekshirilgan mablag'lar miqdori. Moliyaviy nazorat organining umumiy samaradorligi ko'rsatkichi bilan birgalikda ular moliyaviy nazorat samaradorligining "narxini" ko'rsatadilar" (Lomakin, 2008).

Lomakin davlat moliyaviy nazorati organlarini baholashning o'ziga xos mezonlarini taklif qildi (2-jadval). Shu bilan birga, u mezonlarni har tomonlama baholash imkonini beruvchi ko'rsatkichlar (koeffitsientlar) bilan bog'ladi. Davlat moliyaviy nazorati organlari samaradorligining umumiy bahosi ushbu koeffitsientlarning integral qiymati sifatida hisoblanadi.

(2-jadval)

**Lomakin tomonidan taklif etilgan davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari**

| Samaradorlik mezonlari        | Koeffitsientlar  | Koeffitsient tavsifi  |
|-------------------------------|--|---|
| <b>Natijaviylik mezonlari</b> | Fosh etish koeffitsienti   | nazorat davomida aniqlangan moliyaviy huquqbuzarliklar hajmining nazorat ob'ektini moliyalashtirish uchun berilgan mablag'larning umumiy miqdoriga nisbati  |
|                               | Ekspert samaradorligi koeffitsienti                              | o'tkazilgan ekspertiza (tahliliy materiallar) sonining ekspertizalar soniga nisbati   |
|                               | Qaytarilish koeffitsienti  | Umumiy ekvivalentda ifodalangan, qonunbuzarliklar bilan sarflangan mablag'larning byudjetga tiklangan hajmining moliyaviy huquqbuzarliklarning umumiy hajmiga nisbati   |
|                               | Ijro etish koeffitsienti   | bajarilgan va ko'rib chiqilgan taqdimnomalar va ko'rsatmalar sonining taqdim etilgan taqdimnomalar va ko'rsatmalar umumiy soniga nisbati  |
| <b>Amaliylik mezonlari</b>    | Nazorat bilan qamrab olish koeffitsienti                         | nazorat bilan qoplangan xarajatlar hajmining xarajatlar bo'yicha byudjet hajmiga nisbati  |
|                               | Nazorat bilan qamrab olish darjasikoeffitsienti                  | nazorat bilan qamrab olingan budjetdan mablag' oluvchilar sonining byudjetdan mablag' oluvchilarning umumiy soniga nisbati  |
|                               | Nazorat organi ishini rejalashtirish samaradorligi koeffitsienti | ish rejasiga muvofiq hisoblangan nazorat bilan qamrab olish darajasi koeffitsienti va nazorat ishlari natijalari bo'yicha hisoblangan nazorat qamrovi darajasi koeffitsienti nisbati bilan aniqlanadigan hosila qiymati |
|                               | Xabardorlik koeffitsienti  | haqiqiy va rejalashtirilgan nashrlar sifatining nisbati   |
| <b>Tejamkorlik mezonlari</b>  | Iqtisodiy taraflama maqsadga muvofiqlik koeffitsienti            | amaldagi qonun hujjatlarini buzgan holda foydalanilgan (nazorat paytida aniqlangan) mablag'lar miqdorining nazorat organini saqlash xarajatlariga nisbati   |
|                               | Iqtisodiy samaradorlik koeffitsienti                             | byudjetga qaytarilgan mablag'lar miqdorining nazorat organini saqlash xarajatlariga nisbati   |
|                               | Qaytarilish koeffitsienti  | aniqlangan huquqbuzarliklar hajmining nazorat tadbirini o'tkazish xarajatlariga nisbati   |
| <b>Dinamiklik mezonlari</b>   | Nazorat qiluvchi organning funkcionallik koeffitsienti           | nazorat organi tomonidan hozirda foydalanilayotgan funkcionalar va bajariladigan funkcionalar sonining nisbati  |
|                               | Operativlik koeffitsienti  | nazorat chorasini amalga oshirish uchun haqiqatda sarflangan vaqtning uning standart ko'rsatkichiga nisbati   |

Chaldayeva va Fedorenko (2016) nazorat-taftish organlarining samaradorligini baholashning indikativ yondashuvini taklif qiladilar, ularning fikriga ko'ra, ushbu yondashuvdan dinamikada umuman nazorat va buxgalteriya organi, bo'linma yoki alohida har bir xodim uchun foydalanish mumkin. Nazorat organlari faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimida quyidagi ko'rsatkichlar taklif etiladi: samaradorlik, natijaviylik, intensivlik, hajm, xarajatlar.

Samaradorlik ko'rsatkichi byudjetga qaytarilgan mablag'lar miqdorining nazorat organini saqlash uchun ajratilgan mablag'lar miqdoriga yoki nazorat organi xodimlarining soniga nisbatini ko'rsatadi. Natijaviylik ko'rsatkichi noqonuniy sarflangan byudjet mablag'larini aniqlash va undirish parametrlarini aks ettiradi. Intensivlik ko'rsatkichi shaxsiy yukni hisobga olgan holda faoliyatning miqdoriy natijalarini aks ettiradi. Hajm ko'rsatkichi byudjet mablag'larini nazorat bilan qamrab olinishi darajasini va byudjet mablag'larini oluvchilar sonini tavsiflaydi. Xarajatlar ko'rsatkichi aniqlangan huquqbuzarliklar hajmining nazorat organini saqlash uchun ajratilgan mablag'lar miqdoriga nisbatini aks ettiradi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan olimlarning ishlarida nazorat organlari faoliyati samaradorligini baholashning turlicha yondashuvlari taklif qilingan bo'lib, ular turli mezon va ko'rsatkichlarga asoslanadi.

### Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aholining moliyaviy nazorat organlari faoliyatini samaradorligi va ta'sirchanligiga bo'lgan talablari ortib borayotganini alohida ta'kidlash lozim. Tashqi moliyaviy nazorat organlari rivojlangan mamlakatlarda ham, bizning respublikamizda ham davlat boshqaruvini takomillashtirishga olib keladigan islohotlar tashabbuskorlari hisoblanadi. Shu munosabat bilan nazorat organlari o'z mavqeini yanada oshirishi, fuqarolar ishonchini mustahkamlashi, hamda ilg'or xalqaro tajriba natijalarini hisobga olgan holda doimiy ravishda takomillashib borishi zarur deb xisoblaymiz.

Moliyaviy nazoratning o'zi bevosita moddiy va moliyaviy resurslarni tejash imonini bermaydi. Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, nazorat xarajatlari kamaytirilganda bu faoliyat torayadi, rasmiylashadi, boshqaruv tizimida nazorat va uning natijalarining ahamiyati salbiy tendensiyaga ega bo'ladi. Bunday oqibatlarning oldini olish uchun umuman nazoratning maqsad va vazifalari va har bir alohida nazorat chorasi nazorat subyektining mavjud resurslariga mos kelishi zarur. Agar u yoki bu nazorat subyektining resurslari nazorat chorasini sifatli amalga oshirish uchun yetarli bo'lmasa, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun boshqa nazorat qiluvchi organlardan tegishli resurslarni jalb qilish zarur. Demak, nazorat faoliyatini to'g'ri tashkil etish va davlat nazoratchilarining vakolatlari davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati samaradorligining muhim sharti va ayni paytda mezonni hisoblanadi.

Tizimli yondashuvni qo'llash va standart baholash usullaridan foydalanish moliyaviy nazorat organlari faoliyati samaradorligini ta'minlashning asosiy elementlari hisoblanadi. Nazorat jarayonini har tomonlama ko'rib chiqish va uning faoliyatining turli tomonlarini hisobga olish muhim sanaladi. Moliyaviy nazorat organlari moliyaviy shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaning oldini olish, byudjet mablag'larining sarflanishi samaradorligini baholash va boshqalar kabi bir qator muhim vazifalarni bajaradi. Bu funksiyalarni samarali bajarish uchun nazorat organlari faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oluvchi mezonlarni ishlab chiqish zarur.

### Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Mirzoyev B. (2022) Davlat moliyaviy nazorati tizimida samaradorlik auditi: amaliyotga joriy etilishining muhimligi va istiqbollari. *Scientific progress*, 3 (1), -b. 837-847.

Богославский Е.А. (2015) Значение финансового контроля в системе общего государственного контроля / Е.А. Богославский // *Право*. – №3 – С. 46-49.

Бурцев В.В. Система государственного финансового контроля / В.В. Бурцев // *Финансы*. – 2000. – № 9. – С. 47-49. 9.

Васильева М. Эффективность государственного и муниципального финансового контроля: организационный, институциональный и системный ракурсы / М. Васильева // *Финансы и кредит*. – 2011. – № 33 (465) – С. 35-44.

Васильева, М.В. (2015) Критерии и показатели оценки эффективности государственного финансового контроля [Текст] / М.В. Васильева // *Финансы и кредит*. – № 25. – С. 12-24.

Иванова Е.И., Мельник М.В., Шлейников В.И. (2009) *Аудит эффективности в рыночной экономике: учеб. пособ.* – М.: Кнорус, – 328с.

Игнатов Ю. (1999) *Основы взаимодействия* / Ю. Игнатов // *Президентский контроль*. – №39. – С.23-26

Захаров К.Е. (2010) *Государственный финансовый контроль: подходы к оценке эффективности* // *Финансовый журнал*. – №2. – С.61-72.

Ковалева Э.Р., Попова Е.А., Кабашева И.А. (2017) *Оценка эффективности государственного финансового контроля в Республике Татарстан* // *Экономика и предпринимательство*. - №8-2. - С.321-325

Литвиненко И.Н., Шевцов В.В. (2015) *Оценка эффективности государственного финансового контроля* / И.Н. Литвиненко, В.В. Шевцов // *Новое слово в науке: перспективы развития*. – № 2(4) – С. 374-377.

Ломакин С.И. (2008) *Оценка эффективности деятельности контрольно-счетных органов Российской Федерации. Конкурс АККОР на звание «Лучший финансовый контролер России»:*



*Рефераты участников / С.И.Ломакин. – М., – Внутренние материалы Контрольно-счетной палаты Волгограда.*

*Опёнышев С.П., Жуков В.А. (2001) Теоретические и методологические основы оценки эффективности государственного финансового контроля // Бюллетень Счетной палаты Российской Федерации. № 1*

*Салихов З.А. Некоторые подходы к оценке эффективности и результативности работы органов государственного финансового контроля / З.А. Салихов// Аудит и финансовый анализ. – 2005. - №2. – С.15-23*

*Чалдаева Л.А., Федоренко И.Н. (2016) Государственный финансовый контроль на региональном уровне: индикативный подход // Региональная экономика: теория и практика. № 6. С. 4–13.*

*Шарин В.И. (2012) К вопросу об оценке эффективности деятельности контрольно-счётных органов // Вестник АКСОР. № 2 (22). С. 43–54.*

*Шохин С.О., Воронина Л.И. Бюджетно-финансовый контроль и аудит. Теория и практика применения в России: науч.-метод. пособие.- М.: Финансы и статистика, 1997.- 240 с. 8.*

*Якупов З.С. Институт налогового контроля в системе государственного финансового контроля / З.С. Якупов // Казанский экономический вестник. – 2013. – № 2 (4). – С. 80-84.*